XALQ DEPUTATLARI NAMANGAN TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 8-yanvar VII-3-1-6-82-K/25 Namangan tumani

Namangan tumani bo‘yicha 2025-yil uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlarni tasdiqlash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429 va 437-moddalari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 dekabrdagi “Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘ini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-6121-Farmoni ijrosiga muvofiq, tuman Moliya bo‘limi va soliq inspeksiyasining “qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar” loyihasi bo‘yicha kiritgan takliflari muhokama etib, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429 va 437-moddalari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 dekabrdagi “Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘ini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” gi PF-6121-farmonining 4-bandiga muvofiq, quyidagilar:

yer solig‘ining amaldagi soliq stavkalari 2025 yilda 1,10 baravarga indeksatsiya qilinishi kutilayotganligi; Namangan tuman uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha yuridik shaxslarga 0,1 gektar uchun 5324000 (besh million uch yuz yigirma to‘rt ming) so‘m va jismoniy shaxslarga 1 kv.m uchun 394,03 so‘m bazaviy soliq stavkasi belgilanishi ko‘zda tutilganligi; kelgusi yil bazaviy soliq stavkasiga nisbatan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar qo‘llashda keyingi yil mahalliy byudjet daromadlari prognozidan kelib chiqish bo‘yicha tavsiyalari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2.“Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar” miqdorlarini belgilash bo‘yicha tuman moliya va tuman soliq inspeksiyasining qo‘shma taklifi maъqullansin.

3. Quyidagilar:

Namangan tumani hududida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq

stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar miqdorlari 1-ilovaga muvofiq,

Namangan tumani hududida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutloq miqdorlari 3-ilovaga muvofiq;

YATTlar uchun belgilangan eng kam va eng yuqori stavkalari (diapazon) doirasida hududlar kesimida miqdorlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga 0,7 dan 1,3 gacha qo‘llaniladigan koeffisiyentlar miqdori 5-ilovaga muvofiq;

noruda qurilish materiallari uchun (syementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffisiyentlar miqdori 6-ilovaga muvofiq;

mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalariga qo‘llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffisiyentlar miqdori 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, Soliq idorasiga jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i (yakka tartibdagi tadbirkorlardan tashqari) summasi 2024 yil uchun hisoblangan soliq summasining 1,3 baravaridan oshmasligi lozimligi;

tuman xalq deputatlari Kengashiga viloyat xalq deputatlari Kengashi tomonidan belgilangan yer solig‘i stavkalariga qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun, ularning hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko‘cha kesimida 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlarni kiritish huquqi berilganligi alohida ko‘rsatib o‘tilsin.

4. Tuman soliq inspeksiyasi 2025 yil uchun yuridik shaxslarning (yirik soliq to‘lovchilardan tashqari) mol-mulkiga solinadigan soliqni ushbu qaror bilan, qishloq xo‘jaligida mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ining xalq deputatlari tumanlar Kengashi tomonidan tasdiqlanadigan stavkalar asosida hisoblanishi va belgilangan tartibda undirilishini ta’minlasin.

5. Tuman xalq deputatlari Kengashi ushbu qarorning 1 va 2 ilovalariga asosan belgilangan soliq stavkalariga nisbatan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlarni kelgusi yil uchun mahalliy byudjet daromadlari prognozidan hamda mamlakatimizda iqtisodiy faollikning tiklanganligi hamda aholi va tadbirkorlarning daromadlari barqarorlashganligidan kelib chiqqan holda qo‘llashlari tavsiya etilsin.

6. Namangan tuman soliq inspeksiyasi (D.Tursunov) yer solig‘i bo‘yicha tasdiqlangan soliq stavkalarini 2025 yil 10 yanvarga qadar barcha soliq to‘lovchilarga soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali yetkazilishini ta’minlasin.

7. Namangan tuman soliq inspeksiyasi (D.Tursunov):

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda o‘z vaqtida byudjetga undirilishini nazoratga olib borish;

tegishli byudjetning ijro etilishi jarayonida unga tushumlarni ko‘paytirish bo‘yicha qo‘shimcha zaxiralarni aniqlash; yer solig‘ining soliq bazasini oshirish, ya’ni xatlov ishlarini samarali tashkil etib borsin.

8. Ushbu qaror “Istiqlol” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

9. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (E.Yusupov) va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Sh.Abubakirov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



MO‘MINOV
SADRITDIN
ZOKIROVICH

Xalq deputatlari Namangan tumani
Kengashining
2025-yil 8-yanvardagi
VII-3-1-6-82-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘njalanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq muqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisentlar

T/r	Mahalla nomi	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari, 0,1 ga uchun	
		Koeffisiyent (0,7 dan 3 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2025 yil uchun (so‘mda)
1	Anjirzor MFY	1,00	5 324 000,0
2	Beshkapa MFY	1,00	5 324 000,0
3	Bog kucha MFY	1,00	5 324 000,0
4	Bozorboshi MFY	1,00	5 324 000,0
5	Buston MFY	1,00	5 324 000,0
6	Gayrat MFY	1,00	5 324 000,0
7	Guldirov MFY	1,00	5 324 000,0
8	Dexkonobod MFY	1,05	5 590 200,0
9	Ibrat MFY	1,00	5 324 000,0
10	Kaykovuz MFY	1,00	5 324 000,0
11	Katta Toshbulok MFY	1,15	6 122 600,0
12	Kirgizkurgon MFY	1,00	5 324 000,0
13	Kichik Kurama MFY	1,00	5 324 000,0
14	Kichik Toshbulok MFY	1,10	5 856 400,0
15	Korakul MFY	1,00	5 324 000,0
16	Koratepa MFY	1,00	5 324 000,0
17	Kukon kishlok MFY	1,10	5 856 400,0
18	Kul buyi MFY	1,00	5 324 000,0
19	Kumkorgon MFY	1,10	5 856 400,0
20	Kurama MFY	1,00	5 324 000,0
21	Kurgoncha MFY	1,00	5 324 000,0
22	Yashnaobod MFY	1,00	5 324 000,0

23	Kushchinor MFY	1,00	5 324 000,0
24	Mallaxovuz MFY	1,00	5 324 000,0
25	Mirishkor MFY	1,00	5 324 000,0
26	Mullakuding MFY	1,05	5 590 200,0
27	Navkiron MFY	1,00	5 324 000,0
28	Navruz MFY	1,10	5 856 400,0
29	Namuna MFY	1,00	5 324 000,0
30	Nugaykorgon MFY	1,00	5 324 000,0
31	Nurtepa MFY	1,00	5 324 000,0
32	Ok bulok MFY	1,00	5 324 000,0
33	Ok yer MFY	1,00	5 324 000,0
34	Olaxamak MFY	1,00	5 324 000,0
35	Past Kiyot MFY	1,00	5 324 000,0
36	Ravnak MFY	1,10	5 856 400,0
37	Saxovat MFY	1,10	5 856 400,0
38	Tepa Kiyot MFY	1,00	5 324 000,0
39	Tepakurgon MFY	1,00	5 324 000,0
40	Tusar MFY	1,00	5 324 000,0
41	Ulmas MFY	1,00	5 324 000,0
42	Urganji MFY	1,00	5 324 000,0
43	Faravon MFY	1,00	5 324 000,0
44	Xonobod MFY	1,00	5 324 000,0
45	Xujakishlok MFY	1,00	5 324 000,0
46	Chagir MFY	1,00	5 324 000,0
47	Chorbog MFY	1,00	5 324 000,0
48	Shamsikul MFY	1,00	5 324 000,0
49	Shurqishlok MFY	1,00	5 324 000,0
50	Shurkurgon MFY	1,00	5 324 000,0
51	Elatan MFY	1,00	5 324 000,0
52	Eshobod MFY	1,10	5 856 400,0
53	Yangi yul MFY	1,00	5 324 000,0

Xalq deputatlari Namangan tumani
Kengashining
2025-yil 8-yanvardagi
VII-3-1-6-82-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehkon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1 kv.metr uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisentlar

T/r	Mahalla nomi	Jismoniy shaxslar bo‘yicha, 1 kv.m uchun	
		Koeffisiyent (0,7 dan 3 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2025 yil uchun (so‘mda)
1.	Anjirzor MFY	1,06	417,67
2.	Beshkapa MFY	0,96	378,27
3.	Bog kucha MFY	1,06	417,67
4.	Bozorboshi MFY	1,06	417,67
5.	Buston MFY	1,06	417,67
6.	Gayrat MFY	1,14	449,19
7.	Guldirov MFY	0,85	334,93
8.	Dexkonobod MFY	1,16	457,07
9.	Ibrat MFY	1,14	449,19
10.	Kaykovuz MFY	0,85	334,93
11.	Katta Toshbulok MFY	1,16	457,07
12.	Kirgizkurgon MFY	0,96	378,27
13.	Kichik Kurama MFY	0,96	378,27
14.	Kichik Toshbulok MFY	1,16	457,07
15.	Korakul MFY	0,96	378,27
16.	Koratepa MFY	1,14	449,19
17.	Kukon kishlok MFY	1,06	417,67
18.	Kul buyi MFY	0,85	334,93
19.	Kumkorgon MFY	1,14	449,19
20.	Kurama MFY	0,99	390,09
21.	Kurgoncha MFY	0,99	390,09

22.	Yashnaobod MFY	0,96	378,27
23.	Kushchinor MFY	1,09	429,49
24.	Mallaxovuz MFY	0,96	378,27
25.	Mirishkor MFY	1,06	417,67
26.	Mullakuding MFY	1,16	457,07
27.	Navkiron MFY	1,16	457,07
28.	Navruz MFY	1,09	429,49
29.	Namuna MFY	1,09	429,49
30.	Nugaykorgon MFY	0,96	378,27
31.	Nurtepa MFY	1,14	449,19
32.	Ok bulok MFY	1,06	417,67
33.	Ok yer MFY	0,85	334,93
34.	Olaxamak MFY	0,96	378,27
35.	Past Kiyot MFY	1,09	429,49
36.	Ravnak MFY	1,14	449,19
37.	Saxovat MFY	1,09	429,49
38.	Tepa Kiyot MFY	1,06	417,67
39.	Tepakurgon MFY	1,06	417,67
40.	Tusar MFY	0,96	378,27
41.	Ulmas MFY	0,85	334,93
42.	Urganji MFY	0,96	378,27
43.	Faravon MFY	1,06	417,67
44.	Xonobod MFY	0,96	378,27
45.	Xujakishlok MFY	1,14	449,19
46.	Chagir MFY	0,85	334,93
47.	Chorbog MFY	1,14	449,19
48.	Shamsikul MFY	0,85	334,93
49.	Shurqishlok MFY	0,85	334,93
50.	Shurkurgon MFY	0,85	334,93
51.	Elatan MFY	0,85	334,93
52.	Eshobod MFY	1,14	449,19
53.	Yangi yul MFY	0,96	378,27

Xalq deputatlari Namangan tumani
Kengashining
2025-yil 8-yanvardagi
VII-3-1-6-82-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan

mutloq miqdorlari

T/r	**Tuman va shaharlar nomi**	**Koeffisiyent**	**Mutloq miqdor** (so‘mda)
4	Namangan tuman	1.00	1 300 000

Xalq deputatlari Namangan tumani
Kengashining
2025-yil 8-yanvardagi
VII-3-1-6-82-K/25 -son qaroriga
4-ilova

YATTlar uchun belgilangan eng kam va eng yuqori stavkalari doirasida hududlar kesimida qat'iy belgilangan soliq miqdorlari

ming so'mda

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Oziq-ovqat va nooziq ovqat chakana savdosi	Dehqon bozor-larida q/h mahsulot-lari chakana savdosi	Gazeta, jurnal va kitob chakana savdosi	Maishiy xizmat-lar
4	Namangan tuman	300 000	100 000	100 000	100 000

Xalq deputatlari Namangan tumani
Kengashining
2025-yil 8-yanvardagi
VII-3-1-6-82-K/25 -son qaroriga
5-ilova

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffisiyentlar

(qishloq ho‘jaligi, elektr stansiyalari, kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari va ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq to‘lovchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi)

T/r	**Sohalar**	**Koeffisiyent**	**Soliq miqdor** *(1 kub metr uchun so‘mda)*
1	Alkogolsiz ichimliklarni hamda pivo va vinodan tashqari alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan suv hajmi uchun	1,10	41 800,0
2	Sanoat korxonalari hamda iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridagi korxonalari va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun	1,00	Yer usti – 700,0 Yer osti – 850,0
3	Avtotransport vositalarini yuvish uchun ishlatilgan suv hajmiga	1,00	15 000,0

Xalq deputatlari Namangan tumani
Kengashining
2025-yil 8-yanvardagi
VII-3-1-6-82-K/25 -son qaroriga
6-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (syementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffisiyentlar

T/r	**Noruda qurilish materiallari nomi**	**Koeffisiyent**	**Soliq miqdor** *(1 kub metr uchun foiz yoki so‘mda)*
1	Qurilish qumi, qumtoshlar, qum-shag‘al aralashmasi	1,00	5 000 so‘mdan kam bo‘lmagan
2	G‘isht-cherepisa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar,	1,00	5 foiz yoki 4 620 so‘mdan kam bo‘lmagan

Xalq deputatlari Namangan tumani
Kengashining
2025-yil 8-yanvardagi
VII-3-1-6-82-K/25 -son qaroriga
7-ilova

Mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalariga qo‘llaniladigan koeffisiyentlar

T/r	Ijara ob’yekti turlari	Koeffisiyent	Soliq miqdor *(so‘mda)*
1	Turar joylar uchun	1,31	7 205,0 *(1 kv metr uchun)*
2	Noturar joylar uchun	1,27	*13 970 (1 kv metr uchun)*
3	Yengil avtomobil uchun	1,22	1 050 000
4	Avtobuslar va yuk avtomobillari uchun	1,30	1 705 000